

**ARAB TILINI SAMARALI VA ZAMONAVIY USULLAR VA  
METODLAR YORDAMIDA O`RGANISH**

*Malika Sindarova Aziz qizi*

*Samarqand Davlat Chet Tillar Instituti “Sharq Tillar” fakulteti*

*Filologiya va fanlarni o`qitish: arab tili yo`nalishi talabasi*

*E-mail: [malikasindarova1@gmail.com](mailto:malikasindarova1@gmail.com)*

*Telefon: +998994275195*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada rivojlangan tillardan biri hisoblangan arab tilini samarali usullar yordamida o`rganish, til ko`nikmalari bo`lmish eshitib tushunish, o`qib tushunish, yozish va gapirish kabi ko`nikmalarni rivojlantirish haqida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** Metodlar, til ko`nikmalari, Sevr mezonlari asosidagi darsliklar (Miftahul arobiyya), foydali ilovalar, telegram va you tube tarmoqlari, multfilm va kino

### **KIRISH**

Hozirgi jamiyatda chet tillarini o`rganishga bo`lgan ehtiyoj tobora oshib bormoqda. O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 19- may 2021- yildagi “ O`zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o`rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to`g`risida ” gi qarorida ham “ Yoshlarni qo`llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili ” deb bu yilning e`lon qilinishi ham bejiz emas, ya`ni ta`lim sifatini hamda aholi yoshlarini chet tillarini o`rganishga bo`lgan qiziqishini oshirishga alohida e`tibor qaratimoqda. Hozirgi vaqtda inovatsion tehnologiyalar rivojlangan davrda ingliz tilini o`rganish bilan bir qatorda arab tilini o`rganishga bo`lgan ehtiyoj ham kun sayin ortib bormoqda. Bilamizki, arab tili dunyodagi murakkab tillar reytingi bo`yicha 2- o`rinda turadi. Ya`ni arab tili eng mukammal til hisoblanib, uni o`rganish ham ko`proq vaqt va kuch talab qiladi. Shu sababli, tilni o`rganishda samarali va foydali metod va usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir ya`ni chet tilini o`rganishda zamonaviy metodlarning ahamiyati beqiyos. Shu o`rinda hozirgi davrda keng qo`llanilayotgan bir nechta metodlardan foydalanib kelinmoqda.

Masalan:

1. “**Aqliy hujum**” ( Brainstorming ) – g`oyalarni generator qilish metodi hisoblanadi. Bu usulning mohiyati o`rganuvchilarni jamoa bo`lib, biror muammo yechish jarayonlarida g`oyalarni generatsiyalash, ularni tanqidiy va konstruktiv holatda ishlab chiqishdan iborat.

2. “ **Tezkor savol** ” ( Quick answers ) – Bunda o`tilgan mavzu yuzasidan tezkor

savollar beriladi. Bu metod o`tilgan mavzuni mustahkamlashga yordam beradi.

3. “ **Rasmlar so`zlaganda** ” ( When pictures speak ) – usuli ancha qulay bo`lib, arab tilini o`rganishda, o`rganuvchilarning og`zaki nutqini oshirishda yordam beradi.

4. “ **Insert** ” metodi, bunda o`rganuvchilarga biror text taqdim etiladi, o`quvchilar uni qaytadan gapirishi va o`z xulosalarini bayon etishi kerak bo`ladi. Bu usul text bilan ishslashda faollikni, kuzatuvchanlikni, tushunishni rivojlantirish uchun kuchli usul hisoblanadi.

Chet tillarini o`rganishning zamonaviy metodlaridan eng mashhuri **kommunikativ metod** hisoblanadi. Ushbu usul arab tilini o`rganish uchun eng faol usullardan biridir. Chunki bu usulning maqsadi talabani o`rganayotgan tilida boshqa odamlar bilan muloqot qilishni o`rgatishdir. Bunda muoloqotning faqatgina gapirish ko`nikmasi emas, ( yozish va o`qish qobiliyatları ) boshqalar ham nazarda tutiladi.

Bugungi kunda chet tillarini o`rganishda gramatik qoidalarga muhim urg`u beribgina emas, til ko`nikmalari hisoblangan “ eshitib tushunish ”, “ o`qib tushunish ”, “ yozish ”, va “ gapirish ” ko`nikmalarini o`rganishga e`tibor kuchli hisoblanadi. Xususan, yurtimizga chet tilining o`qitilishi chet tili o`quvchilarining bilim va ko`nikmalarini baholashning umumyevropa tavsyanomalari “ **CEFR** ” ga mos ravishda yangi usul va talablar ishlab chiqildi. Bu ham mana shu to`rt kamponentni rivojlanishiga sabab bo`ldi.

Arab tilida mana shu to`rt kamponentning rivojlanishida sefr mezonlari asosida ishlab chiqilgan darsliklarning ahamiyati juda katta. Bundan tashqari, to`rt kamponentni o`rgatish bo`yicha tuzilgan, hamda hozirgi vaqtida eng ko`p foydalanilayotgan kitoblardan biri bu **Miftahul arobiyya** kitobidir. Bu kitob 5 ta kitobdan tashkil topgan va darajalangan ( Ao, A1, A2, B1, B2 ), arab tilini o`rganuvchilar uchun eng qiziqarli, mavzulashtirilgan o`quv darslik hisoblanadi. Bundan tashqari kitobda qisqacha grammatic qoidalar, turli xil dialoglar va foydali textlar mavjud. Arab tilini 0 dan o`rganuvchilar mana shu 5 ta kitobni o`qib chiqgan holda harakat qilib bemalol B2 darajasini qo`lga kiritishlari mumkin.

Hozirda til o`rganishda bir qancha foydali va samarali, hamda bepul ilovalar ham yaratilgan bo`lib, ular orqali ham tilni qiziqarli tarzda o`rganish, hattoki turli davlat vakillari bilan onlayn muloqot qilish, do`stlar orttirish mumkin. Bularidan arab tilini o`rganish uchun ham foydalaniladigan ilovalar mavjud. Misol uchun, “ Tandem ”, “ Duolingo ”, “ Hello Talk ” bundan tashqari, “ Arab tili darsliklari ”, “ Arabus ” kabilar

“ **Tandem** ” ilovasi asosan gapirish ko`nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ilova bo`lib, arab tilida gapirishga, fikrlarini ifoda etishga yordam beradi. Ilova orqali siz nafaqat arab tili balki o`rganyotgan tilingiz orqali boshqa davlat vakillari bilan suhbat qilishingiz va yangi bilimlar orttirishingiz va do`stlar orttirishingiz mumkin.

“ **Duolingo** ” ilovasi bu ilova o`zining darjasini va toifalariga bo`lingan, ilovani yuklab olib, o`z darajangizni belgilab darslarni organizni boshlaysiz. Arab tilida so`z

yodlashga qiyaluvchilar uchun tavsiya etiladigan ilova chunki, bu ilovada mavzulashtirilgan so`zlarni yod olasiz va dars so`ngida yakuniy test topshiriqlarini bajarasiz, agar muvaffaqiyatli yakunlasangizgina keyingi bosqichga o`tishingiz mumkin.

**“Hello Talk”** ilovasi 100 dan ortiq tillarni o`rganishingiz mumkin jumladan arab tilini ham, arab tilini tanlaysiz va butun dunyo bo`ylab arab tilida so`zlashuvchilar bilan suhbatlashish orqali rivojlanasiz, ilovada bir vaqtning o`zida bir nechta kishilar bilan suhbatlashishingiz mumkin.

**“Arabus”** bu ruscha arabcha lug`at kitobi bo`lib, bu ilovada siz arab tilida kerak bo`ladigan so`zlarni bemalol topishingiz mumkin, bu ilovaning yana bir qulay tarafi shundaki, arab tilida o`zak harflarni topishda juda foydali ilova hisoblanadi.

Bugungi kunda ijtimoiy tarmoq vositalari ham keng rivojlangan hisoblanib, arab tili bo`yicha, telegram hamda you tube platformalari orqali bepul tarzda video darsliklar orqali o`zingiz mustaqil holatda yoki biror kuchli o`qituvchi orqali turli bilimlarni o`rganishingiz ham mumkin. You tube ilovasi orqali turli arab tilidagi o`zingiz yoqtiradigan qiziqarli videolar, multfilmlar, kinolarni ko`rish orqali ham tinglab tushunish va gapirish mahoratlarini oshirish, ancha samarali usullardan biridir.

**Xulosa:** Maqolaning so`ngida xulosa qilib aytadigan bo`lsak, arab tilini samarali metodlar va usullar orqali o`rganish, arab tilini tez, oson va qiziqarli tarzda o`rganishga, o`rganuvchilarni ushbu tilga qiziqishini yanada uyg`otishga yordam beradi. Yuqorida metodlar va turli ilovalardan foydalanish orqali o`quvchi o`zida arab tilidagi sanab o`tilgan ( eshitish, o`qish, yozish, gapirish ) ushbu to`rt mahoratni yaxshi natijada va samarali usulda egallab oladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. J. Jalolovning Chet tilini o`qitish metodikasi. 2012
2. <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>
3. <https://inlibrary.uz/index.php/analysis-problem/article/view/12964>